



75. Burchak. Burchak turlari

Yondosh mavzu:
grafika.


O'tkir, to'g'ri,
o'tmas burchaklar.




1. AB va AC kesmalar tekislikni nechta qismga bo'ladi?




Burchak – bu tekislikning bir nuqtadan chiquvchi ikki nur orasidagi qismi.
AB va AC nurlar – burchak tomonlari.
A nuqta – burchakning uchi.
Belgilanishi: $\angle BAC$ yoki $\angle A$.



2. Bir varaq qog'oz oling.
Uni teng ikki buklang, keyin
yana teng ikki buklang.
Hosil bo'lgan burchak to'g'ri
burchak deb ataladi.



1



2



3

3. To'g'ri burchakni topish uchun
goniya (to'g'ri burchakli chizg'ich)
dan foydalaniladi. Goniya yordamida
berilgan burchaklardan qaysilari to'g'ri
burchak ekanini aniqlang.



4. Ko'rgazmada 118 ta rasm namoyish etildi. Ulardan 48 tasi
rangli qalamlar bilan bajarilgan, ulardan 14 ta kam rasm oddiy
qalamda, qolganlari esa rangli bo'rlarda bajarilgan. Nechta
eksponat rangli bo'rlarda chizilgan?



5. Matndan noma'lum kattalikni toping.


a) Malikada x ta rangli qalam bor edi. U qalamlardan 8 tasini yo'qotdi. Keyin yana 12 ta rangli qalam sotib oldi. Endi unda 26 ta qalam bo'ldi.

b) Ko'rgazmada x kishi bor edi. Bir soat ichida ko'rgazmaga 58 kishi keldi, 47 kishi esa qaytib ketdi.


Bir soatdan keyin ko'rgazma zallarida 117 kishi bo'ldi.



6. Agar burchak to'g'ri burchakdan kengroq bo'lsa, u o'tmas burchak deb ataladi. Agar burchak to'g'ri burchakdan torroq bo'lsa, u o'tkir burchak deb ataladi. Quyidagi burchaklar orasidan o'tkir va o'tmas burchaklarni toping.



7. Rasmdagi qaysi shakllar sizga ma'lum? Nechta doira, uchburchak va to'rtburchaklar tasvirlanganligini sanang va yozing. "Ko'z bilan chamalab", yuqorigi to'rtburchakning burchaklari qanday ekanini aniqlang. Goniya yordamida o'zingizni tekshiring.



8. Tenglamalarni yeching.

$$x + 245 = 854$$

$$670 - y = 267$$

$$z - 563 = 179$$



9. Ixtiyoriy uchburchak yasang. Uning tomonlari uzunliklarini o'lchang va perimetrini toping. Bu uchburchakning burchaklari qanday?